

BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI VA O'QISH DARSLARIDA 5E MODELI EXPLAIN (TUSHUNTIRISH) BOSQICHINI QO'LLASH

L.B.Irisova

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti

Ta'lismi va tarbiya nazariyasi va metodikasi

(boshlang'ich ta'lismi) mutaxassisligi

1-kurs magistranti

E-mail: lobarislomova05@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf ona tili va o'qish darslarida 5E modelining Explain (tushuntirish) bosqichini qo'llash, uning foydalari, afzallikkali haqida gap ketgan. Bu bosqichning qonun-qoidalari, qanday qo'llanilishi haqida ma'lumot berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: interfaol, samaradorlik, qobiliyatlar, explain, o'quvchi, o'qituvchi, akademik qobiliyat, didaktik qobiliyat, ona tili, o'qish

Annotation. This article discusses the use of the Explain (explanation) stage of the 5E model in native language and reading lessons in elementary school, its benefits and advantages. Information is provided on the rules of this stage and how it is applied.

Keywords: interactive, effectiveness, abilities, explain, student, teacher, academic ability, didactic ability, native language, reading

Аннотация. В этой статье речь идет об использовании этапа Explain (объяснения) модели 5Е на уроках родного языка и чтения в начальных классах, ее пользе и преимуществах. Даны информация о законах и правилах этого этапа, о том, как они применяются.

Ключевые слова: интерактивность, эффективность, способности, explain, ученик, учитель, академические способности, дидактические способности, родной язык, чтение

Boshlang'ich sinflarlarda, umuman olganda, ta'lim maskanlarida interfaol usullar yordamida o'quvchilar bilim samaradorligini oshirishga kundan – kunga e'tibor kuchayib bormoqda. Interfaol usullar qo'llangan mashg'ulotlar o'quvchilar

egallayotgan bilimlarni mustaqil tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlarini chiqarishlariga qaratilgan bo'ladi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va shaxs sifatida tarbiyalanishiga sharoit yaratadi hamda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka sabab bo'ladi. Ta'lim metodlarini har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq.

Innovatsion ta'limni tashkil etishda qo'yiladigan muhim talablaridan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay qisqa vaqt ichida muayyan bilimlarni bolalarga yetkazib berish, o'quvchilarda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarini hosil qilish, shu qatorda, ularning faoliyatini e'tiborsiz qoldirmaslik, o'quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalar reytingini baholash pedagogdan yuksak kasbiy mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. Bu talablarni bajarish uchun esa, zamonaviy 5E moduliga murojat qilamiz. Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida aynan shu model orqali dars jarayonini tashkil etamiz. Berilgan mavzuni o'quvchilarga interfaol metodlar orqali tushuntirish uchun bu modelning Explain (tushuntirish) bosqichidan foydalanamiz. Bu bosqichda o'qituvchi o'quvchilarga o'rganilayotgan mavzuni tushuntiradi, o'quvchilar o'zlarining fikrlarini ifodalashadi va o'qituvchi mavzuga oid tushunchalarni to'liqroq ifodalaydi. Bundan tashqari yana o'qituvchi o'quvchilarning savollariga javob berish va ularni tushunishga yordam berish kabi vazifalarni bajaradi. Mavzuni o'qituvchi tushuntirish jarayonida o'quvchilarda mavzu yuzasidan savol tug'ilsa, shu lahzaning o'zida murabbiy ularga javob berib o'tadi. Mavzuni yoritishda o'qituvchidan quyidagi pedagogik qobiliyatlar talab etiladi:

1. Didaktik qobiliyat – bu oson yo'l bilan mavzuni o'quvchilarga tushuntira olishdir. Bunda pedagog mavzuni bolalarga tushunarli qilib bayon qila olishi, ma'lumotni ularga aniq va tushunarli qilib aytib bera olishi va namoyish qila olishi, o'quvchilarda mustaqil ravishda fikrlashga qiziqish uyg'ota olishi ko'zda tutiladi. O'qituvchi zarurat tug'ilgan hollarda o'quv materialini o'zgartira, soddalashtira oladi, qiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, tushunarsiz narsani tushunarli qila oladi.

2. Akademik qobiliyat – barcha fanlar yuzasidan bilimlarga ega bo'lishlik. Bunday qobiliyatlarga ega bo'lgan o'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha bilimlar hajmidagina emas, balki ancha keng va ko'proq biladi, o'z sohasidagi yangiliklarni

kuzatib boradi. O'uvchilarga mavzu bo'yicha bilim va ko'nikmalar shakllantirish jarayonida ma'lumotlarni boshqa fanlar bilan bog'lay oladi.

3. Nutqiy qobiliyat – ravon, ma'noli, ohangdor, ixcham ko'rinishga ega bo'lgan nutq. Qobiliyatli pedagogning nutqi hamisha dars jarayonida o'quvchilarga qaratilgan bo'ladi. Nutq so'zlovchi tinglovchilarni zeriktirib qo'ymasligi uchun "Nutq raqsi" dan foydalanadi. Nutq raqsi bu uning bir hikoya, bir ertak, bir qo'shiq, bir baland, bir past, bir savol, bir darak bo'lib kelishidir.

4. Diqqatni taqsimlash qobiliyati – bir necha ob'ektlarga bir davrning o'zida o'z munosabatini bildirish. Pedagog uchun diqqatning barcha xususiyatlari – hajmi, uning kuchi, ko'chuvchanligi, idora qilina olinishi va ishga solishining taraqqiy etganligi muhimdir. Tajribali pedagog o'z fikrini yoki tarbiyalanuvchi fikrini bayon qilishda diqqat bilan kuzatadi, mavzuni yoritish jarayonida barcha o'quvchilarni o'z diqqat-e'tiborida tutadi, toliqish, e'tiborsizlik, tushunmaslik alomatlarini hushyorlik bilan kuzatib boradi, barcha jarayonni e'tibordan qochirmaydi, o'z harakatlariga ham diqqat qaratadi.

5. Kelajakni ko'ra olish qobiliyati – insonning kelajagini oqilona tasavvur qilishdan iborat bashorati. Bu pedagog o'z harakatlarining oqibatlarini oldindan ko'rishda, mavzuni tushuntirishdagi yo'li qanday natija berishini taxmin qilishida namoyon bo'ladi va berilgan natijaga qarab o'quvchi shaxsining qay darajada rivojlanishi taxmin ostiga olinadi.

Tushuntirish bosqichida pedagog yuqoridagi qobiliyatlar bilan mavzuni o'quvchilarga yoritib, izohlab bersa, ko'zlangan maqsadga erishiladi. Mavzuni yoritish hayotiy jarayonga bog'lansa, o'quvchi ko'z oldida tasavvur va bu orqali tushuncha paydo bo'ladi. O'quvchining xotirasida muxrlanib qolishi kuzatiladi, amaliy jarayonga kirishishlari ham oson kichadi.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi kunda har bir darsga puxta tayyorgarlik ko'rib, darslarni yangi pedagogik texnologiya asosida yaratish, o'quvchilarning jamiyat orasida erkin faolligini ta'minlash, kreativ, ijodkorlikni hamda tanqidiy fikrlashlashlarini o'stirish uchun zamon talabiga mos innovatsion modullardan faoydalanish bugungi ta'lim uchun samara beradi deb o'ylayman va 5E modelini o'zbek ta'lim tizimida pedagoglarning qo'llab ko'rishlarini tavsiya etaman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.** Rajabova Shoira Xamidovna “Boshlang'ich sinf darslarida zamonaviy metodlar va interaktiv o'yinlardan foydalanish” bo'yicha metodik qo'llanma. Buxoro – 2024.
- 2.** Xudoyerova Ozoda Baxtiyorovna “Hozirgi zamon o'qituvchisi va ularga qo'yiladigan talablar”. Mejdunarodniy nauchniy jurnal- 2022.
- 3.** Dilova N.G.(2021). Formative assessment of student knowledge-as a means of improving the of education. Scientific reports of Bukhara State University. 3:5,pp.144-155.
- 4.** https://t.me/e_baza_ishreja
- 5.** <https://t.me/+mi15W-aqCcFhOTly>